BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

To‘rayeva Sharofat Boboyor qizi
+998937663668
https://doi.org/10.5281/zenodo.23069103

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda kompetensiyaviy yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda amaliy faoliyatning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, oliy ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishning samarali pedagogik shart-sharoitlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchi, boshlang‘ich ta’lim, kasbiy kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik imkoniyatlar, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar.

Аннотация: В статье освещаются педагогические возможности развития профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов. Анализируется значение компетентностного подхода, современных педагогических технологий, интерактивных методов и практической деятельности в формировании профессиональной компетентности будущих педагогов. Также рассматриваются эффективные педагогические условия развития профессиональных знаний, умений и навыков будущих учителей начальных классов в процессе высшего образования.

Ключевые слова: будущий учитель, начальное образование, профессиональная компетентность, компетентностный подход, педагогические возможности, профессиональная подготовка, педагогические технологии, интерактивные методы.

Annotation: The article highlights the pedagogical opportunities for developing the professional competence of future primary school teachers. The importance of the competency-based approach, modern pedagogical technologies, interactive methods, and practical activities in developing the professional competence of future teachers is analyzed. The article also examines effective pedagogical conditions for developing the professional knowledge, skills, and abilities of future primary school teachers in the process of higher education.

Keywords: future teacher, primary education, professional competence, competency-based approach, pedagogical opportunities, professional training, pedagogical technologies, interactive methods.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagog kadrlarni tayyorlash mazmunini takomillashtirish, ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish hamda zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorlashni taqozo etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini shakllantirishda o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi, pedagogik mahorati va metodik kompetentligi muhim ahamiyat kasb etadi.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim sohasining asosiy tamoyillari, ta’lim oluvchilar uchun sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini ta’minlash hamda ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilangan. Shu bilan birga, 2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dasturda o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta’minlash, pedagog kadrlarning sifat tarkibini oshirish va ularning doimiy kasbiy rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilgan. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni pedagogik vaziyatlarda samarali qo‘llay olish, o‘quvchilar bilan muloqot qilish, ta’lim jarayonini loyihalashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va o‘z kasbiy faoliyatini tahlil qila olish qobiliyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli oliy ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik imkoniyatlarni aniqlash va ulardan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biridir.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida kompetensiyaviy yondashuv alohida ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv bo‘lajak pedagogning bilimlarni tayyor holda o‘zlashtirishidan ko‘ra, ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olishiga, mustaqil qaror qabul qilishiga, pedagogik muammolarni hal etishiga va o‘z faoliyatini muntazam takomillashtirib borishiga yo‘naltiriladi. O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismlari, uni baholash mezonlari va rivojlantirishning metod hamda vositalariga alohida e’tibor qaratilgan.Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyiha faoliyati, amaliy mashg‘ulotlar, mustaqil ta’lim va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish muhim pedagogik imkoniyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur vositalarning ta’lim jarayoniga maqsadli va tizimli joriy etilishi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Shundan kelib chiqib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, ularning mazmun-mohiyatini ochib berish va samarali pedagogik vositalarni asoslash mazkur maqolaning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi bir nechta o‘zaro bog‘liq komponentlardan iborat. Ularning uyg‘un rivojlanishi o‘qituvchi faoliyatining samaradorligini ta’minlaydi.

Birinchi komponent — kasbiy-bilim kompetensiyasi bo‘lib, pedagogika, psixologiya va o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha chuqur bilimlarni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi **komponent** — metodik kompetensiya, ya’ni ta’lim metodlari, texnologiyalari va baholash usullarini samarali qo‘llay olish qobiliyatidir.

Uchinchi komponent — kommunikativ kompetensiya, bu o‘qituvchining o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot o‘rnatish ko‘nikmalarini ifodalaydi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

To‘rtinchi komponent — reflektiv kompetensiya, ya’ni o‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyatidir. Shuni aytib o’tish joizki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish modeli maqsad, mazmun, faoliyat va natijaviy komponentlardan iborat yaxlit pedagogik tizimni tashkil etadi. Modelning maqsad komponenti boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini zamonaviy ta’lim talablari asosida rivojlantirishga qaratilgan. Mazmuniy komponent o‘qituvchilarning kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, metodik tayyorgarligini kuchaytirish va innovatsion faoliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Faoliyat komponenti malaka oshirish kurslari, seminarlar, treninglar va tajriba almashish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Natijaviy komponent esa o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi rivojlanish darajasini aniqlash va baholashga xizmat qiladi. Pedagogik muloqot -bu o'qituvchining o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda o'zi uchun eng qulay bo'lgan psixologikmuhitnivujudga keltirib, ijobiy ruhiy iqlimni yaratishiuchun imkoniyatberuvchi kasbiy munosabatidir. O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro yaqin muloqotidan asosiy rnaqsad: salbiy holatlarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish; o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish; o'quvchilarni faollikka, erkin fikrlashga, o'z fikr-mulohazalarini cho'chimasdan bayon qilib unga tayanishga o'rgatish; o'quvchilarning yashirinqobiliyatlarini rivojlantirish; dars va darsdan tashqari jarayonlarda quvonch va shodlik kayfiyatini paydo qilish. A.S.Makarenkoning fikricha, o'qituvchi muloqoti hurmat va talabchanlikka asoslangan munosabat shaklida bolishi lozim. V.D.Suxomlinskiy o'qituvchining "...maktab hovlisida gapirgan har bir so'zi puxta o'ylangan, aql va mulohazalarga boy, ma'lum bir tarbiyaviy maqsadga qaratilgan bo'lishi kerak", - deb ta'kidlaydi.

Kasbiy-pedagogik muloqotning 5 ta bosqichi bor. Bular:

1. Muloqot jarayonida mo'ljal olish. Bu bosqichda pedagog muloqotining anglanganligi yuzaga chiqadi. Shuningdek, muloqot uslubini yangi kommunikativ faoliyat sharoitida aniqlash ham yuzaga chiqadi. Psixolog Sh.A. Amonashvili bolalar maktabga kelmasidan awal ularga xat yozgan. Masalan, «Salom, qadrli.... Men sening o'qituvchingman. Mening ismim Shalva Aleksandrovich. Maktabga kirayotganing bilan tabriklayman. Umid qilamanki, sen bilan do'st bo'lib ketamiz. Sening 35 ta o'rtog'ing bo'ladi. Seni sinfda kutaman». Demak, bu yerda o'quvchiga mo'ljalga olish ko'rsatmasi berilyapti. O'z ustida ishlashda pedagogik muloqotning quyidagi bosqichlariga e’tiborni qaratish lozim:

- bolada yaxshi taassurot qoldirish uchun tashqi ko'rinishingizga ahamiyat;
- bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda muloqotning bu bosqichini e’tibordan chetda qoldirmang;
- boshqalar bilan muloqotda keskin burilishga yo'l qo'ymang;
- bugungi muloqot ko'ngildagidek bo'lmasa, uni tuzatishga harakat qiling;
- darsda qaror qabul qilishda improvizatsiya (vaziyatni yaratish, real hayotda bor narsani ko'rsatib vaziyatdan chiqish) ga harakat qiling;
- auditoriya bilan ish boshlashdan awal faqat o'zingizning pedagogik materiallaringiz haqida emas, balki bolaning holati, faoliyatga tayyorligi haqida o'ylang

2. Pedagogik faoiiyatning muhim jihati - e’tiborni o‘ziga tortish bo‘lib, bola bilan samarali muloqotni amalga oshirish uchun dars jarayonida bolaning diqqati barqaror bo'lishi kerak. O'ziga jalb qilishning quyidagi usullari mavjud:

- verbal muloqotda bo'lish (nutqiy);
- tanaffus qilish;
- harakatli (doskaga yozish, ko'rgazmani osish);
- aralash usul (yuqoridagilami birgalikda qo'llash). Darsda ko'pincha aralash variant usulidan foydalaniladi. Olimlaming fikricha, yuz ifodasi va imo-ishoralar orqali ma’ruzada 40% axborot beriladi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

3. Obyektning (kishi) qalbini zabt etish bosqichi pedagogik muloqotni tashkillashtirishda katta ahamiyatga ega. Mohiyati jihatidan bu bosqich kommunikatsiyani o'ziga xos izlash bosqichidir. Masalan, yangi materialni bayon etishda pedagog bolalarni muloqotga tayyorlab oladi. O'qituvchining o'quvchini tushunishi kasbiy-pedagogik muloqotning kaliti hisoblanadi.

4. Pedagogik muloqotning yana bir bosqichi bu verbal muloqot, ya’ni o'qituvchining yangi materialni o'quvchilarga og'zaki bayon qilib berishidir. Pedagog uchun nutq muloqoti juda muhim. Pedagogik muloqot tizimida pedagogning so'zi obrazlar qo'zg'atuvchisi bo'lib hisoblanadi.

5. Pedagog bilan tinglovchi o'rtasidagi o'zaro harakatda hayajonni uzatishning kommunikativ vositalari muhim rol o'ynaydi. Jumladan, pedagogning nutqi jonli, ohanglarga boy, tushunarli, aniq, sodda tilda bo'lishi kerak. Shunda tinglovchilaming idroki to'liq, obrazli bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish modeli ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur model o‘qituvchining kasbiy bilimlari, metodik mahorati va shaxsiy fazilatlarini kompleks rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyasi o‘quvchilarning ta’lim natijalari va shaxsiy rivojlanishiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 23.09.2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portal O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni. 11.05.2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. 08.10.2019.
4. Turg‘unov S.T., Daniyarov B.X., Umaraliyeva M.A. va boshq. O‘qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish. – Toshkent: Sano standart, 2012. – 172 b.
5. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.